

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XIDOYATOV DAVRON ABDULPATTAXOVICH

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT-
XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025 yil

UDK: 334.012.3:304:364(571.16)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the
Doctor of Science (PhD) on economics sciences**

Xidoyatov Davron Abdulpattaxovich

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklikni
rivojlantirish..... 3

Хидоятов Даврон Абдулпаттахович

Развитие государственно-частного партнерства в условиях
модернизации экономики..... 27

Khidoyatov Davron Abdulpattakhovich

Development of public-private partnerships in a progressive
economy..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XIDOYATOV DAVRON ABDULPATTAXOVICH

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT-
XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2019.2.PhD/Iqt.1068 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Kongiratbay Avazimbetovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sattorov Saidmurod Abdusharipovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Turin politexnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239 – 28 - 72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «__» _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi)

G.K. Abduraxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djuraboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

Sh.A. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon globalizatsiyasi va iqtisodiy beqarorlik sharoitida milliy raqobatbardoshlikni ta'minlash mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish zaruratini oshirmoqda. Jahon Bankining Infratuzilmada Xususiy Ishtirok etish (PPI) ma'lumotlar bazasi shuni ko'rsatadiki, transport, energetika, suv va kanalizatsiya kabi sohalarga e'tibor qaratilayotgan butun dunyo bo'ylab DXSh loyihalariga har yili milliardlab dollar ajratiladi. Masalan, 2023- yildagi ma'lumotlar Yevropada sezilarli faollikni ko'rsatdi, bu yerda transport infratuzilmasi kabi loyihalar qiymati 9,1 milliard yevroni tashkil etdi¹. "Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning milliy hukumatlari iqtisodiy faoliyatning an'anaviy davlat monopoliyasi hisoblangan yoki uning nazorati ostida bo'lgan, masalan, gaz va energetika xo'jaligi obyektlari, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari, transport va aloqa tizimlari kabi yo'nalishlarini to'liq o'z javobgarligida deb hisoblamaydi. Biroq, ushbu obyektlarni davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida biznesga topshirgan holda, ular bu obyektlarga egalik qilish huquqini, shuningdek, xususiy kompaniyalarning faoliyatini tartibga solish va qat'iy nazorat qilish huquqini saqlab qoladi"². Ushbu faoliyatning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish masalalarining dolzarbligini ko'rsatadi.

Dunyoda kuchayib borayotgan global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyot salohiyatidan samarali foydalanishning muhim sharti sifatida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlat va xususiy sektorlar hamkorligining innovatsion shakllarini aniqlash, davlat-xususiy sherikchilik imkoniyatlarini baholash metodik asoslarini yaratish, ushbu sherikchilik imkoniyatlaridan uy-joy qurilishi, sog'liqni saqlash, maktab ta'limi va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda foydalanish, ushbu loyihalarni moliyalashtirish jamg'armalarini tashkil etish, davlat-xususiy sherikchilik modeli va uning elementlari asosida korxonalar va tashkilotlar samaradorligini baholash, shuningdek, bu borada innovatsion uslublar va metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish ushbu ilmiy-tadqiqot ishining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida davlat-xususiy sherikchilikka, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va intensivligini oshirish imkonini beruvchi yangi tashkiliy-iqtisodiy tadbirkorlik shakli sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy sharoitda davlat-xususiy sherikchilik iqtisodiy siyosatning samarali vositasi sifatida ko'rib, davlat tomonidan belgilangan strategik yo'nalishlar bo'yicha biznesning innovatsion va investitsion salohiyatidan maqsadli foydalanish imkonini beradi. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular davlat byudjeti yukini kamaytirish, xususiy biznesning afzalliklari (vakolatlar, samarali boshqaruv usullari,

¹ <https://www01.eib.org>

² Варнавский В.Г. Управление государственно-частными партнерствами за рубежом // Вопросы государственного и муниципального управления. 2012. № 2. – С.135. - <https://vgmu.hse.ru>

innovatsiyalarni joriy etish imkoniyati) orqali davlatning ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarini amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni strukturaviy qayta tashkil etish sharoitida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish va infratuzilma sohalarida qo‘shimcha investitsiya imkoniyatlarini yaratadi va bu jarayon muhim ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish orqali asosiy ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Davlat-xususiy sherikchilik institutini shakllantirish va rivojlantirish xususiy va jamoat manfaatlarini muvozanatini ta'minlashni, davlat va xususiy biznes subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga samarali erishishini, innovatsion rivojlanishning asosiy tendensiyalarini amalga oshirishni, tadbirkorlikning iqtisodiy faolligi yuqori darajada bo‘lishini, davlat samaradorligini va jamiyat farovonligini oshirishni talab etadi. Mazkur muammolarni ilmiy asosda hal etishga qaratilgan tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 18-sentabrdagi PQ-307-son “O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalari rivojlanish jamg‘armasini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi 558-son “Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2021-yil 11-avgustdagi 509-son “Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”, 2020-yil 26-apreldagi 259-son “Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 13-dekabrda 1009-son “Davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur soha bilan bog‘liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik davlat va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davlat-xususiy sheriklikning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud bo‘lib, ularda xorijiy olimlar, jumladan, V.Varnavskiy, S.Silvestrov, M.Deryabina, M.Vilisov, S.Sivaev, I.Makarov, A.Bajenov, A.Vorotnikov, R.Martusevich, A.Klimenko, V.Korolyov, L.Sharinger, Ye.Arzhaniq, Ye.Volkov, T.Mataev, A.Rementsev va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni qayd etish lozim³.

³ Белицкая А.В. Правовое регулирование государственно-частного партнерства: Монография. – М.: Статут, 2012; Варнавский, В.Г., Клименко, А.В., Королев, В.А., Баженов, А.В., Воротников, А.М. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. – М.: Изд. дом Гос. ун-та. Высшей школы экономики, 2010.- 541 с.; Горбунов А.А. Взаимодействие властных и предпринимательских структур: теория и практика: монография / А.А. Горбунов, Г.И. Касаткин / под ред. д. э. н., проф. А.А. Горбунова. – СПб.: Изд-во МФИН, 2005.; Государственно-частное партнерство в инновационных системах / Под общ. ред. С.Н. Сильвестрова. – М.:

O‘zbekistonda iqtisodiyot rivojlanishida davlat va xususiy biznesning roli va o‘rni bilan bog‘liq ayrim masalalar quyidagi o‘zbek iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan: S.S.G‘ulomov, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Baltabayev, B.Yu.Xodiev, M.S.Qosimova, D.K.Axmedov, T.M.Axmedov, N.M.Mahmudov, B.B.Berkinov, M.A.Iqbolov, U.I.Jumoniyo‘zov va boshqalar⁴.

Zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlarda shakllangan ilmiy vositalarni moslashtirish imkoniyatlari dolzarb masala sifatida ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Shuningdek, davlat va xususiy sektorlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik sharoitida investitsiya loyihalarini amalda amalga oshirish uchun metodik platforma ishlab chiqish zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, mavzuning dolzarbligi, uning ilmiy ishlab chiqilish darajasi va amaliy ahamiyati dissertatsiya mavzusini, maqsadi va vazifalarini tanlashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Marketing va menejmentning innovatsion konsepsiyalarini modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini operativ rivojlantirish jarayonida qo‘llash metodologiyasi” ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida (2020–2021-yillar) amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat-xususiy sherikchilikni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va strukturaviy qayta qurish instituti sifatida rivojlantirish bo‘yicha nazariy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy iqtisodiyotda davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi alohida hamkorlik turi sifatida davlat-xususiy sheriklikning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash,

Издательство ЛКИ, 2008; Делмон, Дж. Государственно-частное партнерство в инфраструктуре: практическое руководство для органов государственной власти (пер. с англ.) / Дж. Делмон. Астана: ИЦ «Апельсин», 2010. - 261 с.; Запатрина И. Публично-частное партнерство: потенциал для развивающихся экономик. Монография. – Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2013; Зельднер А.Г. Партнерские отношения государства, бизнеса и общества в условиях смешанной экономики. – М.: Экономические науки, 2010. – 214 с.; Игнатюк Н.А. Государственно-частное партнерство // Учебник. – М.: Юстицинформ, 2012; Ларин, С.Н. Государственно-частное партнерство: зарубежный опыт и российские реалии / С.Н. Ларин // Государственно-частное партнерство в инновационных системах / Под общ. ред. С.Н. Сильвестрова М.: Издательство ЛКИ, 2008. – 312 с., с. 51–62.; Левитин И.Е. Развитие государственно-частного партнерства на транспорте. – М.: ВИНТИ РАН, 2010.; Панкратов, А.А. Государственно-частное партнерство в современной практике: основные теоретические и практические проблемы. Монография / А.А. Панкратов. М.: «Анkil», 2010. - 248 с.

⁴ С.С.Гулямов, И.С.Очилов, С.О.Ганиходжаев. Ўзбекистон иқтисодиётининг ўсиш ва барқарор ривожланиш омиллари. Билимга таянган инновацион иқтисодиёт. Ўқув-методик қўлланма. –Т.: «Fan va texnologiya», 2016, 136 бет.; А.Ш.Бекмуродов. Ўзбекистон иқтисодиётининг инновацион юксалиш моделини излаб. Тошкент: “XXI ASR”, 2018. – 215 б.; М. Boltabayev, M. Qosimova, B. G‘o‘yibnazarov, Sh. Ergashxodjayeva, A. Samadov, Sh. Otajonov. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tonumidan 5340200 — Menejment ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. – Т.: «NOSHIR», 2011; Б.Б.Беркинов, У.Қ.Ахмедов. Уй хўжаликлари ривожланиши ва оила даромадларини ошириш истикболлари. –Т.: «Fan va texnologiya», 2013, 144 бет.; Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2017 йил № 3, май-июнь, 9-бет.; Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДИУ, 2017. – 57 б.

moliyalashtirishni ta'minlash hamda aholi uchun zarur xizmatlarni taqdim etuvchi muhim obyektlarni yaratish va ulardan foydalanishni tashkil etish;

mamlakatda mavjud davlat-xususiy sheriklik shakllarining O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish talablariga, shuningdek, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish vazifalariga muvofiqligini belgilash;

xorijiy tajribaga tayanib, uy-joy qurilishi, sog'liqni saqlash, maktab ta'limi va boshqa sohalardagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish muammolarini hal etish uchun moliyalashtirish fondlarini yaratish imkoniyatlarini aniqlash;

davlat-xususiy sheriklik modeli va uning elementlari asosida tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning samaradorlik va natijaviylik darajasini baholash;

mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun davlat-xususiy sheriklik loyihalariga asoslangan innovatsion metod va usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida davlat-xususiy sheriklik doirasida o'zaro hamkorlik jarayonida ko'rib chiqilayotgan davlat boshqaruvi institutlari va biznes tizimlari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik institutining rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik-evolyutsion usul, tegishli qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi formal-logik usullar, tizimli yondashuv usullari, abstrakt-logik, iqtisodiy-statistik, tuzilma-funksional va qiyosiy tahlil usullari, taqqoslash, guruhlash, mantiqiy sxemalarni ishlab chiqish va loyiha muvaffaqiyati indeksining hal qiluvchi muvaffaqiyat omillariga bog'liqligini aniqlash uchun regressiya modeli yaratish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "davlat-xususiy sheriklik" tushunchasi davlat yoki hududiy mulkning ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish yoki ulardan foydalanish maqsadida jamiyat manfaati ga oid zarur loyihalarni amalga oshirish uchun qonuniy rasmiylashtirilgan shartnoma asosida amalga oshiriluvchi, davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o'zaro manfaatli hamkorligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

iqtisodiyotning muhim tarmoq va sohalari bo'yicha davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan loyiha ko'lami va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, DXSH loyihasi umumiy qiymatining 80 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda, imtiyozli davri bilan 15 yilga qadar muddatga tijorat kreditlarini ajratish orqali rag'batlantirish taklifi ishlab chiqilgan;

milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat ko'rsatishi innovatsion faoliyatning turli sohalarda davlat institutlari va kichik biznesning konstruktiv o'zaro hamkorligiga asoslanishi kerakligi shartiga ko'ra mahalliy hokimiyatlar tomonidan "quyidan – yuqoriga" tamoyili asosida davlat-xususiy sheriklik bo'yicha loyihalarni shakllantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi tuzilma faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik shakllari, ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan tovarlar turlari o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikka asoslangan ekonometrik model yordamida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o'zaro manfaatli hamkorligi bo'lgan davlat-xususiy sheriklikning mualliflik talqini shakllantirilgan;

davlat-xususiy sheriklikning davlat yoki hududiy mulk ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish yoki ulardan foydalanish maqsadida jamiyat uchun zarur loyihalarni amalga oshirish uchun qonuniy rasmiylashtirilgan shartnoma asosida amalga oshirilishi asoslangan;

davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik shakllari ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan tovarlar turlari, qo'llanilayotgan usullar va huquqiy rejimga ko'ra farqlanishi asoslangan;

davlat-xususiy sheriklikning jamoat manfaatlarini qondirishga qaratilgan asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan hamda har bir tamoyilning xususiyatlari ochib berilgan;

shariklikni tashkil etish orqali davlat xususiy biznesni faoliyatning ilgari erishib bo'lmaydigan sohalariga kirib borishi uchun iqtisodiy makonni sezilarli darajada kengaytirayotgani asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, avvalo, olib borilgan tadqiqot metodologiyasi va davlat-xususiy sheriklik sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlarining normativ bazasini o'z ichiga olgan tadqiqot bazasining vakilliligi bilan ta'minlanadi. Himoyaga qo'yilgan qoidalarning ishonchliligi statistik manbalar, axborot agentliklari va xizmatlari materiallari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari materiallaridan foydalanish orqali tasdiqlanadi. Dissertatsiyaning qoidalari va xulosalarining asoslanganligi va ishonchliligi maqsad va vazifalarni belgilash, zamonaviy xorijiy olimlarning eng yangi tadqiqotlari asosida shakllantirilgan nazariy umumlashmalar bilan mustahkamlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va ishlanmalardan O'zbekistonda ilk bor zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik yondashuvlarni kompleks o'rganish, davlat sektori iqtisodiyotini xususiy biznes bilan sheriklikda rivojlantirish orqali ustuvor ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirishni ta'minlovchi nazariy va uslubiy asoslarni kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi takliflardan davlat-xususiy sheriklik modelini hisobga olib, innovatsion yondashuv va uslublarni joriy etish choralari, shuningdek, iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning eng samarali mexanizmlarini aniqlashda foydalanish, ushbu natijalar davlat va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha tadqiqot

yo‘nalishlarini kengaytirish, shuningdek, 2022-2026-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi rivojlanish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “davlat-xususiy sheriklik” tushunchasini davlat yoki hududiy mulkning ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko‘rsatish yoki ulardan foydalanish maqsadida jamiyat manfaatiga oid zarur loyihalarni amalga oshirish uchun qonuniy rasmiylashtirilgan shartnoma asosida amalga oshiriluvchi, davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta‘minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o‘zaro manfaatli hamkorligi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Moliya asoslari” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta‘minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o‘zaro manfaatli hamkorligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “davlat-xususiy sheriklik” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

iqtisodiyotning muhim tarmoq va sohalari bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan loyiha ko‘lami va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, DXSh loyihasi umumiy qiymatining 80 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, imtiyozli davri bilan 15 yilga qadar muddatga tijorat kreditlarini ajratish orqali rag‘batlantirish taklifi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 509-son qaroriga 1-ilova “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida nizom”da o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/11-17/3254-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni tijorat banklari tomonidan loyiha ko‘lami va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tijorat kreditlari vositasida uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirish imkoni yaratilgan;

milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishi innovatsion faoliyatning turli sohalarida davlat institutlari va kichik biznesning konstruktiv o‘zaro hamkorligiga asoslanishi kerakligi shartiga ko‘ra mahalliy hokimiyatlar tomonidan “quyidan – yuqoriga” tamoyili asosida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha loyihalarni shakllantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi tuzilma faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/11-17/3254-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublika hududlaridagi mazkur

tuzilmalar faoliyati orqali davlat-xususiy sheriklik bo'yicha loyihalarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik shakllari, ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan tovarlar turlari o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikka asoslangan ekonometrik model yordamida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/11-17/3254-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublika hududlaridagi davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlarining aniqligini oshirish hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalarni o'z ichiga olgan holda 154 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklikni tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida DXSH elementlari, uni tashkil etish tamoyillari va tartibga solish mexanizmlarini nazariy asoslash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, DXShni yaratish va shakllantirishning jahon amaliyoti bo'yicha adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Istiqbolda O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Mamlakatimiz uchun yangilik bo'lgan “davlat-xususiy sheriklik” tushunchasining mohiyati va ahamiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

DXSH institutining mohiyatini aniqlash sohasidagi munozaralarni tahlil qilib, quyidagi asosiy yondashuvlarni kuzatish mumkin:

DXSH davlat va biznes o'rtasidagi har qanday shartnomaviy munosabatlarni ifodalaydi;

DXSH loyihalarining ijtimoiy ahamiyatiga urg'u beriladi;

DXSH loyihalarida davlatning yetakchi roliga alohida e'tibor qaratilmoqda;

DXSH loyihalarida xususiy sektor vakolatlarini kengaytirish zarurligiga urg'u berilmoqda;

DXSH loyihalarini amalga oshirishda DXSH loyihalari barcha ishtirokchilarining manfaatlari, huquq va majburiyatlari muvozanatiga rioya qilish zarur;

DXSH investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion faollik va salohiyatni oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Rossiya va G'arb mualliflari tomonidan berilgan DXSH ta'riflari DXSHni aniqlaydigan bir qator belgilarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

davlatning javobgarligi sohasida amalga oshiriladi (jamoatchilik, ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlar);

infratuzilmani, shu jumladan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan;

xususiy kompaniyaga davlat buyurtmasini bajarishga qaraganda loyihalarni boshqarishda ishtirok etish uchun kengroq imkoniyatlarni ta'minlaydi;

ko'pincha uzoq muddatli, sheriklik va teng huquqlilik xususiyatiga ega;

tavakkalchiliklar va xarajatlarni oldindan kelishilgan nisbatlarda ajratishni ta'minlaydi, shuningdek olingan natijalardan foydalanishda ishtirok etadi;

tomonlarning o'zaro munosabatlari rasmiy hujjatlarda qayd etilgan bo'lib, ular sifatida qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar xizmat qiladi;

iqtisodiyotning ham davlat, ham xususiy sektorlari javobgarligi sohasida amalga oshirilishi mumkin.

Muallifning fikricha, yondashuvlarning turlicha bo'lishiga qaramay, aksariyat ta'riflar bir-biridan farq qilmaydi, chunki ular DXSHni davlat muammolari va vazifalarini (odatda, ijtimoiy va infratuzilmaviy) hal qilish nuqtai nazaridan belgilaydi. Shunday qilib:


xususiy va davlat sektori o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning shartnoma shaklidan (mohiyatiga ko'ra, davlat xaridlari) farq qiladigan o'zaro munosabatlarning yangi sxemasi qurilmayapti;

ushbu o'zaro munosabatlarning yangi shakllari yaratilmaydi, ular, qoida tariqasida, konsessiya yoki lizing doirasidan chiqmaydi;

davlat va xususiy sektorning o'zaro manfaatli hamkorligini amalga oshirish uchun mutlaqo yangi sharoitlar yaratilmayapti.

Muallifning fikricha, davlat-xususiy sheriklik o'zaro manfaatli shartlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va biznes o'rtasidagi huquqiy jihatdan qonuniylashtirilgan, tashkiliy jihatdan tuzilgan alohida munosabatlar tizimidir. Bunday hamkorlik yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan shartnoma asosida, davlat yoki hududiy mulkdagi ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, ularga xizmat ko'rsatish yoki ulardan foydalanish, ijtimoiy jihatdan talab yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, davlat-xususiy sheriklik davlat va biznesning institutsional va tashkiliy alyansi sifatida, davlat va xususiy resurslarni yagona kompleksga samarali birlashtirishga yordam beradigan moliyaviy, huquqiy, ijtimoiy va siyosiy omillarning o'zaro ta'siri asosida namoyon bo'ladi. Bunday

birlashma mamlakatning innovatsion rivojlanishini ta'minlaydigan strategik vazifalarni hal qilishga qaratilgan, shuningdek, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.




1-rasm. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy ishtirokchilari ⁵

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy sharoitida davlat-xususiy sheriklik maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishda faol amalga oshiriladi, bu yerda (investorlarga soliq imtiyozlarini taqdim etishdan tashqari) davlat infratuzilmani rivojlantirishda ishtirok etadi. Biroq, bunday loyihalar, qoida tariqasida, faqat iqtisodiyotdagi davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarga (davlat investitsiyalariga o‘ta muhtoj bo‘lgan innovatsiyalarni rivojlantirish) ta’sir qiladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi shakllari ko‘rsatiladigan xizmatlar va ishlab chiqariladigan tovarlar turiga, qo‘llaniladigan usullar va huquqiy rejimga ko‘ra farqlanadi. Shunga qaramay, ular ijtimoiy manfaatlarni qondirishga qaratilgan bir qator umumiy tamoyillarga bo‘ysunadi. Ushbu DXSH xo‘jalik yuritish tizimi sifatida faqat foyda olishga yo‘naltirilgan xususiy tijorat tashkilotlari faoliyatidan tubdan farq qiladi. Muallif tomonidan DXShning asosiy tamoyillari ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, ular 2-rasmda keltirilgan.

⁵ Muallif tomonidan shlab chiqilgan.



2-rasm. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy tamoyillari⁶

Turli yoʻnalishlar va koʻplab tadqiqotlarga qaramay, adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, bozor munosabatlarning elementi hisoblangan DXSH mexanizmlari masalalari yetarli darajada koʻrib chiqilmagan va shu asosda tadqiqot vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbekiston Respublikasining zamonaviy sharoitida DXSH loyihalarining ishlash jarayonini tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida DXSH elementlari va mexanizmlarini modellashtirishning nazariy asoslari tahlil qilingan boʻlib, ular koʻplab mamlakatlarda infratuzilmani rivojlantirish va uning taqchilligini bartaraf etishning eng muhim vositasi sifatida qaraladi.

DXShning shakllanishi va rivojlanishining jahon amaliyoti shuni koʻrsatadiki, ushbu institut oʻz-oʻzidan investitsiyalar darajasi va infratuzilma loyihalari sifatini tubdan oʻzgartirishga qodir boʻlgan sehrli vosita emas, balki bu oʻzgarishning maʼlum shart-sharoitlari va imkoniyatlari mavjud.

DXShning muvaffaqiyatli rivojlanishi, birinchi navbatda, mamlakatda davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisidagi maxsus qonunning qabul qilinishiga bogʻliq. Xorijiy tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, DXSH sohasida alohida qonun hujjati qabul qilish tobora keng tarqalgan amaliyot boʻlib bormoqda.

Oʻzbekistonda koʻplab xususiy maktablar, bogʻchalar, mehmonxonalar, poliklinikalar va shifoxonalar tashkil etilganiga, shuningdek, koʻp qavatli binolarning xususiy qurilishi yoʻlga qoʻyilganiga qaramay, hozirgi vaqtda mamlakatda davlat-xususiy sheriklikning qonunchilik bazasi mavjud emas.

Oʻzbekistonda DXSHni shakllantirish va rivojlantirish maqsadli va rejali qadamlarni talab qiladi. Oʻzbekistonda DXSHni rivojlantirish uchun davlat bir qator harakatlarni amalga oshirishi kerak, xususan:

DXSHni rivojlantirishga koʻmaklashuvchi muhitni yaratish, xususan, DXSHni

⁶ muallif tomonidan ishlab chiqilgan

joriy etish va undan foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga kiritish;

DXSHni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi qulay huquqiy muhitni yaratish, xususan, DXSH loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi muhitni yaratish uchun uni xalqaro tan olingan amaliyot talablariga muvofiqlashtirish;

davlat organlari va xususiy biznes vakillarining DXSH sohasidagi kompetentligini oshirish, ya’ni mutaxassislarni, birinchi navbatda, davlat xizmatchilarini tenderlar o‘tkazish, shartnomalar tuzish, muzokaralar olib borish, loyihalar monitoringini amalga oshirish masalalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun o‘qitish;

salohiyatli DXSH loyihalarini aniqlash va tayyorlashni boshlash.

O‘zbekistonda DXShning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish maqsadida DXShning ta’lim, sog‘liqni saqlash va xususiy qurilishda imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. O‘zbekistonda hozirgi vaqtda ta’lim tizimida DXShni amalga oshirish tajribasi mavjud emasligi sababli, bunday hamkorlikning mumkin bo‘lgan mexanizmlaridan biri Toshkent shahri misolida ko‘rib chiqildi (1-jadval).


1-jadval

Toshkent shahri maktab tizimida DXShni amalga oshirish mexanizmi⁷

T/r	Ta’lim tizimida DXShni amalga oshirish bosqichlari
1	Loyihaning DXShni amalga oshirish uchun xususiy sherikni aniqlash bo‘yicha tanlov o‘tkazish
2	Shahar (tuman) hokimligi maktab qurish uchun yer uchastkasini ijaraga beradi yoki DXSH loyihasi amalga oshiriladigan maktabni tanlaydi
3	Xususiy biznes hamkor maktabni moliyalashtiradi, quradi, ishga tushiradi yoki mavjud maktab negizida DXSH loyihasini amalga oshiradi
4	Tuman hokimligi maktabni qurish xarajatlarini qoplaydi, shuningdek xususiy biznesning maktabni joriy saqlash yoki joriy ta’limlash xarajatlarini qoplaydi
5	Maktab DXSH to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddati tugagunga qadar xususiy sherikda qoladi

Toshkent shahridagi maktab ta’limi tizimida DXSH loyihalarini yaratish va amalga oshirish, bizning fikrimizcha, maktablarni boshqarishga nodavlat ta’lim muassasalari doirasida bolalar bilan ishlashga tayyor bo‘lgan yorqin, tashabbuskor odamlarni jalb qilish, shuningdek, maktab o‘quvchilarining qo‘shimcha ta’lim va ilmiy faoliyati sohasiga ko‘plab odamlarni jalb qilish imkonini beradi. Kompaniyalar va korxonalar aniq maktab o‘quvchilari bilan ishlab, maktab hayotiga qo‘shilishi va real moliyaviy, kadrlar, ma’naviy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishi mumkin. Tegishli normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lgan taqdirda davlat organlari va xususiy biznesning qo‘shimcha ta’lim va ilmiy faoliyat sohasidagi hamkorligi o‘quvchilarning ota-onalari uchun qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini imkon qadar arzonlashtirish imkonini beradi. Quyidagi rasmda maktab ta’limida DXShni tavsiflovchi asosiy elementlar keltirilgan (3-rasm).

⁷ muallif tomonidan ishlab chiqilgan



3-rasm. Maktab ta'limida DXSH mohiyatini tavsiflovchi asosiy elementlar⁸

Maktab va maktabgacha ta'lim sohasida DXSH loyihalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy vaziyatni tahlil qilish quyidagi jarayonlarni rivojlantirishga yordam beradigan takliflarni shakllantirishga imkon beradi:

birinchidan, zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyoti talablariga javob beradigan ta'lim sifatiga erishish uchun davlat va xususiy biznesning moliyaviy resurslari integratsiyasi va kooperatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

ikkinchidan, biznes sohasida qo'llaniladigan samarali boshqaruv tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish;

uchinchidan, DXSHning ta'lim muassasalarining real avtonomiyasiga, ularning moliyaviy-xo'jalik mustaqilligiga va natijaga mas'ulligiga qaratilgan salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qonunchilik va uslubiy bazani shakllantirish va rivojlantirish.

DXSH loyihalarini moliyalashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish mumkin, biroq byudjet cheklangan hozirgi sharoitda DXSH loyihalarini moliyalashtirishning innovatsion manbalarini topish talab etiladi. So'nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda moliyalashtirishning innovatsion vositalari keng tarqaldi, ular qatoriga infratuzilma obligatsiyalari, mezonin obligatsiyalari va chiqindi obligatsiyalari kiradi.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

DXSH tizimining progressiv ko‘rinishi va moslashuvchanligi ota-onalar uchun qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratib, xususiy bog‘chalarni muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga imkon beradi. Hozirgi vaqtda Toshkent shahrida maktabgacha ta’lim tizimida DXSH loyihalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan, chunki shaharda xususiy bog‘chalar tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval

Toshkent shahridagi xususiy bog‘chalar va maktabgacha ta’lim markazlari soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar ⁹ (01.01.2023-yil holatiga)

T/r	Tumanlar	Xususiy bog‘chalar soni	Maktabgacha ta’lim markazlari va qisqa muddatli guruhlar	Xususiy bog‘chalar-dagi bolalar soni	Maktabgacha ta’lim markazlari va qisqa muddatli guruhlaridagi bolalar soni
1	Bektemir	1	2	34	42
2	Mirobod	9	19	254	411
3	Mirzo Ulug‘bek	17	12	994	745
4	Olmazor	14	14	823	629
5	Sergeli	5	7	150	202
6	Uchtepa	14	9	544	268
7	Chilonzor	13	16	759	418
8	Shayxontohur	15	12	504	316
9	Yunusobod	17	8	784	516
10	Yakkasaroy	23	7	967	108
11	Yashnobod	7	11	490	541
Hammasi		114	135	117	6303

Davlat-xususiy sheriklik mohiyatan davlat ishtirokidagi tadbirkorlik faoliyatidir. Bunday hamkorlik nafaqat biznesning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini ta’minlash, balki undan barqaror uzoq muddatli daromad olish imkonini beradi. Masalan, tadbirkor tomonidan qurilgan bolalar bog‘chasi shunchaki davlat mulkiga o‘tkazilmasdan, bundan buyon ham DXSH tamoyillari asosida foydalanishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, tadbirkorning qo‘shimcha daromad olishiga yordam beradi va davlat uchun bunday bolalar bog‘chasini boshqarish yukini kamaytiradi.

Shunday qilib, maktab va maktabgacha ta’lim sohasida DXSH loyihalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy vaziyatni tahlil qilish quyidagi jarayonlarni rivojlantirishga yordam beradigan takliflarni shakllantirishga imkon beradi:

⁹ Jadval muallif tomonidan tuzilgan

birinchidan, zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyoti talablariga javob beradigan ta'lim sifatiga erishish uchun davlat va xususiy biznesning moliyaviy resurslari integratsiyasi va kooperatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

ikkinchidan, ta'lim tizimiga biznes sohasida qo'llaniladigan samarali boshqaruv tamoyillarini joriy etish;

uchinchidan, ta'lim muassasalarining real avtonomiyasi, ularning moliyaviy-xo'jalik mustaqilligi va natijadorligi uchun mas'ulligiga yo'naltirilgan DXSH salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qonunchilik va uslubiy bazani shakllantirish va rivojlantirish.

Shunday qilib, hozirgi kunda O'zbekistonda davlat va biznes hamkorligi orqali ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy davlatlarning to'plangan tajribasidan foydalanishning noyob imkoniyati mavjud. Zamonaviy sharoitlarga mos keladigan eng samarali modellarni tanlash muhimdir.

Muallif tomonidan O'zbekistondagi tajribali DXSH amaliyotchilari o'rtasida empirik anketa so'rovi o'tkazildi. Shuni ta'kidlash kerakki, anketa so'rovi respondentlarga tadqiqotchi tomonidan hech qanday aralashuvsiz o'z javoblarini o'ylash uchun ko'proq vaqt ajratishga imkon bergani uchun qabul qilingan; shunday qilib, bu noto'g'ri fikrlarni bartaraf etadi va yanada obyektiv natijani beradi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot bashorat qilishning matematik modelini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, bu albatta batafsil statistik tahlilni talab qiladi. Shunday qilib, anketa so'rovi, shubhasiz, tadqiqotchilarga dissertatsiya maqsadiga erishish imkonini beruvchi eng yaxshi variant edi.

Ushbu tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSH loyihalarining muvaffaqiyatini bashorat qiluvchi matematik modelni qurish uchun ko'p omilli regression tahlil usulidan foydalanildi.

Ko'p omilli regression tahlil tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y_p = \alpha + \beta_1 X_i + \beta_2 X_{ii} + \dots + \beta_k X_k + \varepsilon_i \quad (1)$$

bu yerda α - o'zgarmas / ning kesishish nuqtasi, $\beta_1, \beta_2, \beta_k$ - X_i, X_{ii}, \dots, X_k birlik o'zgarishi uchun Y_p bahosining o'zgarishini ifodalovchi regressiya koeffitsiyentlari, ε_i prognoz xatosi yoki qoldiqni ifodalaydi, Y_p - bog'liq o'zgaruvchi va X_i, X_{ii}, \dots, X_k - prediktorlar.

Ushbu tadqiqotda regressiya modeli Steyn tenglamasi yordamida o'zaro tekshirildi:

$$R_k^2 = 1 - \frac{n-1}{n-k-1} - \frac{n-2}{n-k-2} \frac{n+1}{n} (1 - R^2) \quad (2)$$

bu yerda R^2 - tuzatilmagan qiymat, k - modeldagi regression o'zgaruvchilar soni, n - kuzatuvlar / tanlanma soni.

Omilli tahlil metodikasidan foydalanib, o'n beshta muvaffaqiyat mezonlari uchta asosiy komponentga (ya'ni, Muvaffaqiyatning tanqidiy mezonlari guruhlari) birlashtirildi. So'ngra noaniq sintetik baholash (NOB) usuli O'zbekistonda DXSH loyihalari SHXIning aniqlash uchun tenglamani shakllantirishda asosiy vosita sifatida

qo'llanildi. Muvaffaqiyatning 15 ta mezonidan uchta asosiy guruh: mahalliy rivojlanish va nizolar sonini kamaytirish, foyda, xarajatlar va texnik xususiyatlar. FSE yordamida ishlab chiqilgan loyiha muvaffaqiyati indeksi (muvaffaqiyat natijasi) modeli quyidagicha taqdim etilgan:

$$IUP = 0.301 * MRSS + 0.347 * \Pi + 0.352 * STX \quad (3)$$

Bu yerda MRSS - mahalliy rivojlanish va nizolarni qisqartirish, P - foyda, STX - qiymat va texnik tavsiflar.

Ushbu bobda substantiv modelning real vaziyatda qanday qo'llanilishiga misol keltirilgan. Har qanday aniq DXSH loyihasi uchun ham davlat, ham xususiy sektor ekspertlari yoki loyiha ishtirokchilari guruhi dastlabki bosqichlarda yuqoridagi tenglamadagi uchta o'zgaruvchiga ushbu loyihadagi qanday erishish mumkinligini besh balli shkala bo'yicha baholaydi (ya'ni: 1 = erishilishi dargumon, 3 = o'rtacha va 5 = juda yaxshi erishilishi mumkin).

Har bir prognostik o'zgaruvchi, ehtimol, juda yaxshi amalga oshiriladi va u ushbu loyihadagi barcha respondentlardan beshta baho oladi. Shunday qilib, har bir RFA uchun o'rtacha qiymat 5,0 ga teng bo'ladi. Har bir RFUning o'rtacha qiymatini qo'yib, ushbu loyiha uchun prognoz qilingan muvaffaqiyat quyidagicha hisoblanadi:

$$Y = -2,705 + (0,353 \times 5) + (0,312 \times 5) + (0,307 \times 5) = 2,155.$$

Bu shuni anglatadiki, ushbu loyihaning eng yuqori bashorat qilingan muvaffaqiyat balli 2,155 ga teng. Bundan tashqari, bo'sag'a bahosi quyidagicha hisoblanadi: har bir prediktor uchun o'rtacha 3,0 (ya'ni o'rtacha) qiymat olinadi deb faraz qilib:

$$Y = -2,705 + (0,353 \times 3) + (0,312 \times 3) + (0,307 \times 3) = 0,211.$$

Natijalarning mohiyati shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlardagi amaliyotchi mutaxassislar bashorat qilinayotgan muvaffaqiyati 0,211 dan past bo'lgan DXSH loyihalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Biroq, 0,211 dan 2,155 gacha oraliqda bashorat qilingan muvaffaqiyatga ega bo'lgan loyihalar xavotir uyg'otmaydi va, ehtimol, muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Regressiya modeli empirik ma'lumotlarga asoslangan holda DXSH loyihalari uchun RFU va muvaffaqiyat mezonlarini har tomonlama va amaliy jihatdan bog'laydi. Regressiya tenglamasida ko'rsatilganidek, uchta RFU rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSH loyihalari muvaffaqiyatini bashorat qilish uchun muhim bo'lib chiqdi. Bularga tavakkalchiliklarni to'g'ri taqsimlash va taqsimlash, oqilona iqtisodiy siyosat yuritish va loyihalarni to'g'ri aniqlash kiradi.

Tadqiqot davomida davlat-xususiy sheriklik shakllari va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka asoslangan ekonometrik modeldan foydalangan holda 2030-yilgacha ishlab chiqilgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning prognoz ko'rsatkichlari hisoblandi.


3-jadval

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar ko‘rsatkichlarini prognoz qilish uchun ma’lumotlar ¹⁰

	DXSH loyihalari	Ishlab chiqarish hajmi (yillik), mlrd.so‘mda	Moliyaviy xizmatlar hajmi (yillik), mlrd.so‘mda	Transport xizmatlari hajmi (yillik) mlrd.so‘mda	Boshqa xizmatlar hajmi (yillik).mlrd. so‘mda
	LnY	LnX1	LnX2	LnX3	LnX4
2020	48	368740.2	45783	53662.9	8296.4
2021	148	456056.1	59733.3	67202.9	10410.5
2022	172	553265	80849.1	83985.6	14429.2
2023	568	658991.7	107290.6	108090.2	21468.1

Hisob-kitoblarning axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi saytidan olingan ikkilamchi ma’lumotlar xizmat qildi.

